

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04

INNOVATSION KLASTERLAR ORQALI UNIVERSITET VA SANOAT
HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Guliston davlat universiteti dotsenti
sherzodbek.uz1986@mail.ru, +998 882783292

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi innovatsion klasterlar orqali universitet va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion klaster, universitet, sanoat, hamkorlik, innovatsiya.

Annotatsiya. V tezis rasmatrivayutsya voprosy razvitiya sotrudnichestva mejdu universitetami i promyshlennymi predpriyatiyami na osnove innovatsionnykh klasterov. Proanalizirovano znachenie vnedreniya nauchnykh razrabotok v proizvodstvo.

Klyuchevye slova: innovatsionnyy klaster, universitet, promyshlennost, sotrudnichestvo, innovatsii.

Abstract. The thesis examines the development of cooperation between universities and industrial enterprises through innovative clusters. The importance of implementing research results into production is analyzed.

Keywords: innovation cluster, university, industry, cooperation, innovation.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanishni ta'minlashda universitetlar va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish va texnologik taraqqiyotni ta'minlashda fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mustahkam bo'lishi talab etiladi.

ASOSIY QISM

Hozirgi iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishni ta'minlashda universitetlar va sanoat sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Bunday aloqalarni samarali tashkil etishda innovatsion klasterlar muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarini o'zaro bog'lab, ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish hamda yangi texnologik yechimlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

Oliy ta'lim muassasalari klaster tizimida ilmiy g'oyalar va bilimlar manbai sifatida faoliyat yuritadi. Ular fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifalarini amalga oshiradi. Ishlab chiqarish sub'ektlari esa mazkur ilmiy ishlanmalarni texnologik jarayonlarga joriy etish orqali mahsulot sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Jadval 1

Innovatsion klasterlarda universitet va sanoat hamkorligining asosiy elementlari

Klaster ishtirokchilari	Asosiy vazifalari	Natijasi
Oliy ta'lim muassasalari	Ilmiy tadqiqotlar olib borish, kadrlar tayyorlash, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish	Yangi bilimlar va innovatsion texnologiyalar
Ilmiy tadqiqot markazlari	Fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish	Ilmiy ishlanmalar va texnologik yechimlar
Sanoat korxonolari	Ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish	Innovatsion mahsulot va xizmatlar
Davlat tashkilotlari	Innovatsion siyosat va huquqiy qo'llab-quvvatlash	Innovatsion muhitni shakllantirish
Biznes va investorlar	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish	Startaplar va texnologik rivojlanish

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadvalda innovatsion klaster doirasida universitetlar, ilmiy tashkilotlar va sanoat korxonolari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari keltirilgan. Unda ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash orqali ishtirok etsa, ishlab chiqarish korxonolari ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish vazifasini bajaradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion klasterlar doirasidagi hamkorlik ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion klasterlar universitet va sanoat korxonolari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

texnologiyalarni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan universitetlar va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalarini rivojlantirish, innovatsion klasterlar faoliyatini kengaytirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2022.
2. Usmonov B.Sh. Rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tizimi. Ta'lim, fan va innovatsiyalar. 2015 y. №1.
3. Isroilov B.I. Ta'lim tizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, 2016 y., 26 mart.
4. Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligidagi innovatsiyalar vorisiylik sifatida. Zamonaviy ta'lim. 2015 y. №10, 12-19 betlar.
5. Fagerberg J., Mowery D., Nelson R. The Oxford Handbook of Innovation. – Oxford University Press, 2005.